

O'zbekistonning milliy aviakompaniyasi yurtimiz mustaqilligining 28-yilligini nishonlash munosabati bilan joriy yilning **31-avgustidan 3-sentyabriga qadar** respublikamiz aholisi va xorijlik sayyohlar uchun barcha ichki yo'nalishdagi qatnovlarga 30 foizdan 50 foizgacha bo'lgan bayram chegirmalarini taqdim etadi.

Bayram chegirmalari:

- Individual yo'lovchilar uchun - **30%**;
- Sayyohlik guruhlar (5 va undan ortiq kishi), litsey va Oliy o'quv yurtlari, kollejlarda talabalari, maktab o'quvchilari, O'zR IIV, TV, DXX, DSQ, DBQ tizimlaridagi maxsus ta'lim muassasalari va boshqa idoralarning tinglovchi va o'quvchilari uchun - **40%**;
- Oila uchun (2 yoki undan ko'p odam, shuningdek, er va xotin; er, xotin va ularning 18 yoshgacha bo'lgan farzandlari; 18 yoshgacha bo'lgan farzandini kuzatib boradigan otalar) - **50%**;
- Nafaqaxo'rlar va nogironlar uchun - **50%**;
- 1941-1945-yillardagi urush qatnashchilari va ularga tenglashtirilgan, shuningdek, Ikkinchi jahon urushi davridagi fidokorona mehnati va harbiy xizmati uchun orden va medallar bilan taqdirlangan shaxslar uchun - **50%**;
- Chernobil AES fojiasi oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etgan fuqarolarimiz uchun - **50%**;

Chegirmali aviabiletlarni "O'zbekiston havo yo'llari" Milliy aviakompaniyasining aviabiletlarni sotish markaziy ofisi va O'zbekiston aeroportlari kassalarida chegirmalarni olish huquqini beruvchi, tegishli hujjatlarni taqdim etgan holda xarid qilish mumkin.



[Download PDF](#)